

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI**Abduraimova Dilchehra****Xamrayeva Sarvinoz****Jòrayeva Marjona****Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti****O‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari****Shamsudinova Iqbol****Ilmiy rahbar: O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qıtuvchısı****<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095688>**

O‘zbek adabiyotining eng nodir asarilaridan bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ramziy obrazlar talqini asosida yaratilgan. Asarni “Qutadg‘u bilig” deb atalishining ma‘no mazmuni ham o‘zi xos ahamiyatga ega. “Qutadg‘u bilig” – qut (saodat, baxt) keltiruvchi bilim demakdir. Asarni paydo bo‘lishi davlatni odilona boshqarishga turtki beradi. Asar to‘rtta bosh qahramonning o‘zaro ijtimoiy-siyosiy voqelik qatnashchisi sifatida ishtiroki asosida qurilgan. Asarda muallif «Davlat, Adolat va Aql bilan boshqarilmog‘i kerak» degan fikrni ramziy shaklda ifodalagan. O‘gdulmish va O‘zg‘urmishning savol-javoblari ba‘zan keskin munozara darajasiga yetadi. Muallif asarni til xususiyatlarni foydalanishda o‘ta mohirona qo‘llashga harakat qilgan. Asar tilida qadimgi turk tilining ildizlari sezilib turadi. Asarda juda ko‘plab semantik ma‘nolarni aks ettiruvchi frazeologik birliklardan qo‘llashga harakat qilingan. Eski o‘zbek adabiy tili uning tashkil topishida dastlabki davrlardan boshlab fonetik, leksik va grammatik jihatidan qarluqchigil va uyg‘ur dialekt guruhi negizida shakllangan sharqiy turkiy adabiy tiliga xos barcha asosiy xususiyatlarni o‘ziga singdirib oladi. Bu xususiyatlar eski o‘zbek adabiy tilida takomilga erishgani holda bir qator o‘zgarishlarga uchraydi. O‘zbek adabiy tilining shakllanish davrini ko‘rsatuvchi asarlardan biri sifatida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarini ko‘rsatish mumkin. «Qutadg‘u bilig» asari she‘riy pandnoma. Bu asar O‘rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o‘zbek xalqining qoraxoniylar davridagi hayotini har tomonlama yoritib berishi bilan muhim bo‘lganidayoq, XI asr adabiy til, adabiyoti va tarixining eng nodir yodgorligi sifatida katta ilmiy-tarixiy qimmatga ega. Eski turkiy tilning rivojlanishida, uning leksik-grammatik me‘yorlarini tartibga keltirishda, ayniqsa, turkiy tilning adabiy-badiiy uslubini shakllantiradi, bu asarning ahamiyati nihoyatda katta. Qarluq chigil-uyg‘ur tillar negizida yozilgan bu asar Qoraxoniylar davlati hududida yashagan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo‘lgan, shu qabilalarning til xususiyatlarini o‘zida mujassailashtirgan. Shunga ko‘ra u O‘rta Osiyodagi hozirgi barcha turkiy xalqlarning adabiy yodgorligi sifatida ularning umumiy til xususiyatlarini aks ettirdi. Odob va axloq, ta‘lim-tarbiya, ilm-ma‘rifat masalalariga bag‘ishlangan «Qutadg‘u bilig» milodiy 1069-1070 yilda Qoshg‘arda yozilgan va Qoraxoniylar hukmdorlardan Tavg‘ach Bug‘roxonga taqdim qilingan. Asarning hozirgi vaqtda 3 ta qo‘lyozma nusxasi ma‘lum. Bular Vena, Qohira va Namangan nusxalaridir. Ulardan Namangan nusxasi eng qadimiyrog‘i va mukammalrog‘i deb taxmin qilingan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari XI asr so‘z san‘atining juda ham nodir asari hisoblanadi. Asar XI asarning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, turkiy xalqlarning tili, turmush tarzi haqida ma‘lumot beradi. Tarixiy ma‘lumotlar asosida qurilgan til birlik va qurilmalarda tilga oid bilimlarni tadqiq qilishi taqozo etadi. Jahon tilshunoslaridan Iosif Fon Xammer, V.Radlov, A.Kanonov, I.Stebleva, Martin Xartman, A.Vamberi, F.Ko‘prulu, Zakiy, V.To‘g‘on, Rashid Rahmat Arat va boshqalar olimlar o‘rganib chiqqan. “Qutadg‘u bilig” asarining to‘la nashrini joriy yozuvga Fitrat, Q.Abdurahmonov,

B.To'xliyev kabi olimlar adabiy qarashlari orqali o'rganib chiqilgan. Biroq "Qutadg'u bilig" asaridagi frazeologik birliklarni qo'llanilishi hamon ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Asar qahramoni o'rtasidagi o'zaro suhbat bayon qilinadi. Suhbat jarayonidagi she'riy matnlarda fikrlarni bayon qilishda ko'chma ma'noli so'zlar va frazeologik birikmalar qo'llash orqali asardagi voqelikni jonlantirishga erishgan. Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so'zdan, ya'ni "phrseos" –ifoda va "logos" – so'zlardan tashkil topgan. Frazeologiya tilshunoslikni ajralmas bir qismi bo'lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtayi nazardan o'rganadi. Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologiya va frazeologik birikmalar tilshunoslikning frazeologik tarkibi va hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotni tekshirishga ko'mak beradi. Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazemalar esa ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya hisoblanadi

Йағыз тағ йэр йашыл торку йузке бады

Хытай аркышы йадты тавғач иди

Ma'nosi:

Bo'z yer yuziga yashil parda tortdi,

Tavg'och hazrati oliylari Hitoy karvonini tarqatdi [73-bet]

Ushbu baytda yerda bo'z yer yuziga yashil parda tortdi – frazeologik ibora bo'lib, tabiatda o't o'lanlarni ko'karishi ya'ni bahor fasli boshlanayotganligiga ishora qilinib, ko'kardi, unib chiqdi semantik ma'nosini bildirgan.

Йазы тағ йер обры тошенди йадыб

Этинди колы кашы кок ал кедиб

Ma'nosi:

Tekisliklar, tog'lar, yer, chuqurliklar yo'yilib to'shandi,

Ko'k va ol kiyib, qo'l va qoshi bezandi.[73-bet]

Mazkur baytda frazeologik birliklar o'xshatish bilan qorishib ketgan. Bu yerda tekisliklar, tog'lar, yer, chuqurliklar yo'yilib to'shandi – frazeologik birikma bo'lib, tekisliklar, yerlar va chuqurliklar ko'karayotganligiga ishora berilgan. Ko'k va ol kiyib, qo'l va qoshi bezandi- ushbu gapda frazeologik birikma o'xshatish bilan birga kelgan. Matndagi ko'k, ol –o'xshatish, kiyib so'zi bilan birga frazeologik birikmani hosil qilgan. Qo'l va qoshi bezandi – frazeologik polesemantik birlik, ot so'z trkumiga oid – qo'l, qosh so'zlari bezandi so'zi bialn birgalikda ibora sifatida kelgan Mazkur frazeologik birliklarning semantik ma'nolarini tahlil qilsak, ko'k va ol kiyib – unib chiqish, ko'karish; qo'l va qoshi bezandi – gullash ma'nolarini anglatgan.

Shoir o'sha davr tilida bo'lgan turli xil morfologik shakllarni yangi so'zlarda qo'llab, ularni tilda yangi hodisa sifatida tanitishga, umumlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Masalan: Mahmud Koshg'ariyning " Devoni lug'ati turk " asarida -chi affiksi shaxs oti yasovchi vazifasida kelgan bo'lsa, Yusuf Xos Hojibning " Qutadg'u bilig " asarida bu affiks o'zgacha shaklda boshqa vazifani ham bajargan. Masalan, **Ozunchig uzungdan yiroq tut saqin.**

Bu keltirilgan misolda **-chi** affiksi bilan kelgan so'z ozunchi so'zi alohida xarakterli, ezma odam ma'nosida kelgan. Bunda tashqari -gu, -g'u, - ni, -qu affikslari " Devoni lug'ati turk " asarida tor ma'noda qo'llangan bo'lsa, "Qutadg'u bilig " asarida aksincha bu affikslar o'nlab ma'no vazifasida keltirilgan. Bundan tashqari asarda forscha so'zlarga nisbatan arabcha so'zlar keng qo'llangan. Masalan: Yusuf, Muhammad, mamlakat, madrasa, adolat, namoz, davlat kabi so'zlar. Asarda oz bo'lsa ham forscha so'zlar ishlatilgan. Misol uchun : bozor, tuxum, pul, osmon, do'st, go'shtkabi

soʻzlar."Qutadgʻu bilig" qoʻlyozmasining uchta nusxasi boʻlib, fanga birinchi bor eski uygʻur-turk yozuvidagi nusxasi maʼlum boʻlgan. Bizga maʼlumki, eski uygʻur-turk yozuvi arab yozuvi bilan baravar ravishda VII asrdan boshlab XVIII asrgacha qoʻllangan.

«Qutadgʻu bilig» tilida –chi, -чы, -ји, -ji affiksi bir necha vazifalarni oʻtaydi. Masalan: **Тагықчи kishilər bolur ilgi kən.** Bunda –chi affiksi kasb-hunar egasi maʼnosini anglatgan. Yana: Ozunchsы uzungdan уыроқ tut, соқын. Bunda uzun sifatiga qoʻshilib, alohida qilikli, ezma odam maʼnosida «ozunchig» soʻzini yasagan. Bundan tashqari –gʻu, -gu, -qu, -ku affikslarining vazifasi bu asarda ancha keng ifodalangan. Masalan: at tushagu boldы-sifatdosh vazifasi. Bu ash ichku (bu ovqatni eyish, ichish) –mavxum ot, egin bitgu kizim... miqdor maʼnosida; qurol nomi kabi maʼnolarni bildiradi. Adib oʻz asarida leksik unsurlardan ham ustalik bilan foydalangan. Asarda forsha soʻzlar bilan birga arabcha soʻzlardan ham keng foydalanilgan. Asar tilida hozirgi tilimizda qoʻllanuvchi yigit, qulgʻoq, yurek, idish, tish kabi otlarni; sarыq, qara, kək kabi sifatlarni; men, sen, nacha, mundogʻ kabi olmoshlarni; kər, kez, kir, bil kabi feʼllarni uchratamiz. Asar tilida hozirgi adabiy tilimizda qoʻllanilmaydigan budui, qamugʻ, bayat va boshqa soʻzlarni ham koʻramiz. Til xususiyatlari nuqtai nazardan «Qutadgʻu bilig»da y oʻrnida d qoʻllash hodisasi ustun turadi: adaq, qadaz, bədug, budun kabi. Soʻz oxirlarida kelgan jarangsiz undoshlarning jaranglashishi ancha sezilarli: tirig, bitik, boshigʻ, oʻxshash kabi. Bulardan tashqari bu asarning koʻp xususiyatlarini koʻrsatish mumkin. U shu davrda yaratilgan boshqa asarlardan til xususiyatlari, badiiy qiymati jihatidan ustunroqdir. Xullas, «Qutadgʻu bilig» eski oʻzbek adabiy tilining shakllanishi jarayonini oʻrganishda muhim manbalardan biri sanaladi.

References:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Toshkent, Fan nashriyoti, 1951.
2. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, Yangi avlod, 2008, 124-b nashriyoti, 1951.
3. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. Toshkent, Akademiya nashriyoti, 2012.
4. Nasimxon Rahmonov "OʻZBEK ADABIYOTI TARIXI (Eng qadimgi davrlarda XV asrning birinchi yarimigacha) Oʻquv qoʻllanma. "Sano-standar" nashriyoti Toshkent 2017.
5. U. Tursunov, B. Oʻrinboyev, A. Aliyev Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent " Oʻqituvchi" 1995.
6. sanaqulov "Oʻzbek adabiy tilining ilk davrlari". Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2004
7. Yoqub Saidov "Oʻzbek adabiy tili tarixi" Toshkent-2021
8. In.net saytlari.